

Yillar va yo'llar...



Mamlakatimizda so'nggi yillarda yo'lsozlik sohasini rivojlantirish, yo'llarni xalqaro talablar darajasiga keltirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Yo'lsozlar tomonidan zamonaviy yo'l, yo'l o'tkazgich, ko'pri, piyodalar uchun yer osti va yer usti yo'llari bunyod etilayotgani aholining uzog'ini yaqin qilib, harakat xavfsizligini ta'minlashga xizmat qilayotir.

Yo'li sozning – ishi soz

3 ming 965 kilometr umumiy, shundan 400 kilometri xalqaro, 1 ming 241 kilometri davlat va 2 ming 324 kilometri mahalliy ahamiyatga ega yo'llar mavjud bo'lgan Toshkent viloyatida ham bu borada tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, o'tgan yillar mobaynida Toshkent – Andijon – O'sh, Toshkent – Samarqand – Buxoro, Toshkent – Chimyon – Chorvoq yo'llari rekonstruksiya qilinib, birinchi toifaga o'tkazildi. Toshkent – Chimyon – Chorvoq yo'li 2 milliard 924 million, Parkent – Zarkent – So'qoq avtomobil yo'lining 10 kilometrlik qismi esa 1 milliard 65 million so'mdan ziyod mablag' evaziga to'liq ta'mirlandi. Bu jarayonda viloyat yo'lsozlari "Katerpillar", "Virtgen", "Jibxerr", "Xamm", "Fogele", "ABG", "Daynapak", "Hitachi", "Komatsu", "Kato", "Nissan" kabi jahonda yetakchi kompaniyalarning zamonaviy texnika va uskunalaridan foydalandi.

– Dovon oshib, vodiya tez-tez borib turaman, – deydi angrenlik Fazliddin Shokirov. – Avvallari tik tog' yo'llariga ko'tarilish qiyin, kamiga yo'llarning o'nqir-cho'nqirligi asab va mashinaning zavoli edi. "Qamchiq" va "Rezak" tunnellari barpo etilgani ayni muddao bo'ldi. Endi yo'l uchun ortiqcha asab va vaqt yo'qotmaymiz.

Ma'lumotlarga ko'ra, istiqloq yillarida viloyat hududida 235 kilometr dan ziyod yo'llarda qurilish va rekonstruksiya ishlari bajarilgan. Shuningdek, umumiy uzunligi 1 ming 200 metrdan ortiq 10 ta yo'l o'tkazgich, qariyb 10 ming 600 metrlik 44 ta ko'priq qurilib, rekonstruksiya qilingan.

Viloyatda 10 ming 300 kilometr dan ortiq ichki xo'jalik yo'llari mavjud. Transport qatnovi xavfsizligini ta'minlash va aholiga qulay sharoit yaratish maqsadida qishloqlarda yaroqsiz holga kelgan yo'llar bosqichma-bosqich rekonstruksiya qilinib, tosh-shag'al, asfalt-beton, sement-beton va qora qoplamali zamonaviy yo'llarga aylantirilmoqda. Xususan, birgina o'tgan yili 120 kilometr dan ziyod yo'l ta'mirlandi. Prezidentimizning "2017-2018 yillarda mintaqaviy avtomobil yo'llarini rivojlantirish dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori bu borada muhim dasturilamal bo'lib xizmat qilayotir.

– Mazkur qaror bilan mintaqaviy avtomobil yo'llarining yo'l qoplamalari holatini zarur darajaga keltirish, ularni ekspluatatsiya qilish xususiyatlarini oshirish orqali yo'l-transport infratuzilmasi yanada takomillashtirilishi nazarda tutilgan, – deydi viloyat avtoyo'llar hududiy bosh boshqarmasi boshlig'i Jahongir Bekmirzayev. – Bu bilan, ayniqsa, qishloq joylarda qulay sharoitlar yaratish, shuningdek, mamlakatimiz iqtisodiyoti tarmoqlari va hududlarini istiqbolli rivojlantirish maqsad qilingan. Dasturga muvofiq, 2017-2018 yillarda viloyat bo'yicha 516 kilometrlik yo'l va ko'chalarni ta'mirlash rejalashtirilgan.

Yangi yo'llar – yangi imkoniyatlar va ulkan tejamkorlik omili

So'nggi yillarda yo'l qurilishi borasida haydovchi va yo'lovchilar uzog'ini yaqin qilish, poytaxt havosi musaffoligini ta'minlash, shahar ko'chalarida tirbandlikning oldini olish maqsadida qator loyihalar amalga oshirildi. Jumladan, 2009-2017 yillarda Toshkent ko'prik xo'jaligini saqlashga ixtisoslashtirilgan ta'mirlash-foydalanish korxonasi tomonidan "Toshkent aylanma yo'li" barpo etildi. "Toshkent xalqa yo'li" avtomobil yo'lining 63 kilometri, ya'ni Sergeli tumani 5-mavzesi orqa tomonidan Bektemir – G'azalkent – Chorvoq avtomobil yo'ligacha bo'lgan yo'nalishda mazkur yo'lning ishga tushirilishi aholi, ayniqsa, haydovchilar uchun qator qulayliklar yaratmoqda. Xususan, yo'l bo'ylab zamonaviy shaharsozlik infratuzilmasini yaratish sanoatni rivojlantirishga xizmat qilishi bilan birga, viloyatning janubi-sharqiy hududini shimoli-g'arbiy qismi bilan shahar tashqarisida bog'lovchi ko'prik sifatida ham muhim ahamiyat kasb etmoqda.

– Haftasiga ikki marta "Otchopar"ga qatnayman, – deydi Nurafshon shahrida istiqomat qiluvchi fuqaro Umid Normatov. – "Toshkent aylanma yo'li"ning qurilishi bilan yo'lga sarflaydigan vaqtimiz yarim soatga qisqardi. Arzimasdek ko'rinishi mumkin-u, ammo yoqilg'i ham ikki litrgacha tejalmoqda.

Darhaqiqat, qariyb 22 kilometr yo'l asfalt-beton qarishmasi bilan qoplanib, 26 metr kenglikda, har bir tomoni uch polosali ravon yo'l barpo etilgani yo'lovchilarning vaqti va naqdini tejash imkonini berayotir.

Ma'lumotlarga ko'ra, ayni paytda mazkur yo'lida kuniga o'rtacha 20 ming avtomobil, 40 mingga yaqin yo'lovchi harakatlanmoqda. Oddiy arifmetik hisob-kitoblarga ko'ra, yo'lovchilarning kuniga 20 ming soat, boshqacha aytganda, 833 kun yoki 2 yilu 3 oy vaqti tejalayotgani ayon bo'ladi. Bu bir oyda qariyb 68 yil vaqt tejaladi, demakdir.

Yoqilg'i tejamkorligi borasida ham shunga o'xshash holatni kuzatish mumkin. Xususan, kuniga o'rtacha 20 ming avtomobil harakatlanishi va o'rta hisobda 2 litrgacha yoqilg'i tejalishi inobatga olinsa, bir kunda o'rtacha 40 ming litr yoqilg'i foydaga qolayotgani oydinlashadi. Agar buni eng arzon yoqilg'i turi – metan gaz misolida hisoblasak, kuniga 68 million so'mlik yoqilg'i tejalayotgani ayon bo'ladi. Bu – loyihaga sarflangan 188 milliard 200 million so'm mablag' 8 yilga qolmasdan birgina yoqilg'i tejalishi hisobiga

to'liq qoplanishini anglatadi.

200 ga yaqin suv o'tkazish inshooti, Chirchiq daryosi ustidan o'tuvchi ko'priklar, bitta temir yo'l ustidan o'tgan yo'l o'tkazgich va to'rtta kichik ko'priklarni o'z ichiga olgan mazkur loyiha amalga oshirilishi natijasida poytaxt yo'llarida avtomobillardan atmosferaga ko'plab zaharli gazlar chiqishining oldi olinayotir. Shuningdek, poytaxtning Sergeli tumanidan boshlanib, Toshkent viloyatining Zangiota, Yangiyo'l, O'rta Chirchiq, Quyi Chirchiq va Yuqori Chirchiq tumanlarini bog'lagan holda vodiya yo'naltirilgan ushbu yo'l bo'ylab namunaviy loyihalar asosida zamonaviy turar joy massivlari, ishlab chiqarish quvvatlari va maishiy xizmat ko'rsatish obyektlari barpo etilishiga zamin yaratildi.

Yangi yo'l qurilishi va uning ahamiyati haqida gap borar ekan, "O'zbek milliy avtomagistrali" tarkibiga kiruvchi Guliston – Ohangaron yo'li qurilishini ham alohida qayd etish lozim. 55 kilometrlik mazkur yo'l Buyuk ipak yo'lining muhim nuqtasi – vodiya va Ohangaron vohasini yurtimizning boshqa hududlari bilan bog'lovchi ko'priklar sifatida, ayniqsa, hududlarni bog'lash masofasini avvalgiga nisbatan 75 kilometrgacha qisqartirgani bilan qimmatlidir.

Yo'lovchi xavfsizligi – eng oliy mezon

Viloyatda yangi yo'llar qurish, mavjudlarini rekonstruksiya qilish, yo'l o'tkazgich va ko'priklar barpo etish bilan bir qatorda aholining xavfsiz harakatlanishini ta'minlash maqsadida piyodalar uchun yer osti va yer usti yo'llari qurishga ham alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, 2008-2013 yillarda piyodalar uchun atigi bitta yer osti yo'li qurilgan bo'lsa, so'nggi 5 yilda 4 ta ana shunday zamonaviy yo'l foydalanishga topshirildi. Bu esa, o'z navbatida, avtomobil va piyodalarning xavfsiz harakatlanishiga zamin yaratayotir.

Ayniqsa, ziyoratchi va sayyohlar bilan doimo gavjum bo'ladigan viloyatdagi tarixiy obida va muqaddas qadamjollarga olib boruvchi yo'llarni ta'mirlash va kengaytirish, yer osti o'tish yo'llari va avtomobillar to'xtash joylarini qurish borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi.

Zangiota tarixiy-memoriy majmuasidan misol. Hamisha ziyoratchi va sayyohlar bilan gavjum bo'ladigan mazkur majmua qarshisidagi ko'cha yaqin-yaqingacha tor va doim tirband edi. Yer osti o'tish yo'li yo'qligi esa ko'chani bu tarafa shoshayotgan ziyoratchilar, jumladan, avtomobillar harakatlanishida qiyinchilik tug'dirardi.

– Zangiota ziyoratiga tez-tez kelib turaman, – deydi samarqandlik Abdurasul Rahmatov.
– Ilgari obida qarshisidagi shundoq ham serqatnov yo'lda piyodalar va transport vositalarining betartib harakati turli noqulayliklarni keltirib chiqarardi. Bu galgi safarimda

mutlaqo o'zgacha manzara. Menga tanish ziyoratgoh binosi, yo'lbo'yidagi pastqam loysuvoq uylar zamonaviy qiyofa kasb etibdi. Yer osti yo'li barpo etilgani esa juda yaxshi ish bo'libdi. Ilgari tor va tirband ko'chadan yurakni hovuchlab o'tardik.

Darhaqiqat, obida qarshisida piyodalar uchun kengligi 6, uzunligi 48 metrlik umumiy qiymati 11 milliard 266 million so'm bo'lgan yer osti o'tish yo'li, shuningdek, 1000 dan ziyod avtoulovni sig'dira oladigan 2 ta avtomobillar to'xtash joyi foydalanishga topshirildi.

Ziyoratgoh yonidan o'tuvchi Eski Toshkent yo'li ham tubdan qayta ta'mirlandi. 3 polosali yo'l kengligi 16 metr bo'lgan 4 polosali, ziyoratgoh ro'parasida esa 23 metrdan iborat 6 polosali etib kengaytirildi. Qarama-qarshi yo'nalishda harakatlanayotgan transport vositalari xavfsizligini ta'minlash maqsadida ajratuvchi panjaralar o'rnatildi. Yo'l bo'yidagi yoritgichlar ham yangilandi. Hozirda ushbu yo'l 1-toifali yo'l talablariga to'liq javob beradi.

Keng, tekis va ravon yo'llar, zamonaviy yer osti o'tish yo'llari yo'lovchilarning uzog'ini yaqin, og'irini yengil qilish, ortiqcha vaqt yo'qotishining oldini olish barobarida, yo'l harakati bilan bog'liq noxush hodisalar kamayishiga xizmat qilmoqda.

– Yo'l-transport hodisalari joriy yilning sakkiz oyida o'tgan yilning shu davri bilan taqqoslaganda 28,4 foizga kamaydi, – deydi viloyat IIB YHXB bo'lim boshlig'i Ulug'bek Nurmuhamedov. – Piyodalar ishtirokidagi yo'l-transport hodisalari 21,1 foizga, xususan, bolalar ishtirokidagi esa 34,8 foizga kamaydi. Albatta, bu mamlakatimizda yo'llarni xalqaro me'yorlar darajasiga keltirish va yo'l harakati xavfsizligini ta'minlashborasida amalga oshirilayotgan islohotlar samarasidir.

"Yo'l azobi – go'r azobi", deyishgan ota-bobolarimiz. Bugun bu ibora mantiqan eskirdi. Yo'lsozlik borasida amalga oshirilayotgan ishlar pirovardida yo'llar yo'lovchiga azob emas, madaniy hordiq bag'ishlamoqda.

Muxtasar aytganda, mamlakatimiz yo'lsozlik sohasida amalga oshirilayotgan ulkan bunyodkorlik ishlari haydovchilarning yo'l bilan bog'liq sarf-harajatlarini keskin qisqartirish, yo'lovchilar uzog'ini yaqin qilish, ayniqsa, xavfsiz harakatlanishini ta'minlash barobarida, atmosferaga zaharli gazlar chiqishining oldini olish, binobarin, tabiat musaffoligini asrashga xizmat qilayotir.

Avazbek Xudoyqulov, [O'zA](#)